



# AIFU



## “Yomg’irda qolgan mushuk” hikoyasi tarjimasida yozuvchi uslubini saqlash masalasi

Qandilat Iusupova

O’qituvchi

O’zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O’zbekiston

E-mail: [mrs.kandilat@mail.ru](mailto:mrs.kandilat@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada E.Xemingueyning “Yomg’irda qolgan mushuk” hikoyasining tarjimasida va unda yozuvchi uslubini saqlash muammolari xususida soʻz yuritiladi. Ma’lumki, Heminguey bir qator hikoyalar muallifi boʻlib, ularning bir nechtasi oʻzbek tiliga tarjima qilingandir. Mazkur hikoya tarjimasida orqali yozuvchi uslubini va matn ma’no xususiyatlarining tarjimada qay darajada berilgani tahlil etiladi.

**Abstract:** In this article the translation and its problems of the story “A Cat in the Rain” by Ernest Hemingway is discussed. It is known that Hemingway is the author of numerous stories and some of them were translated into Uzbek language. With the help of this translation the style of writer and its expression in the translation of the story is analyzed.

27

**Аннотация:** В этой статье рассматривается о переводе рассказа Эрнеста Хемингуэя «Кошка под дождём» и проблемах сохранения в нем стиля писателя. Известно, что Хемингуэй является автором ряда рассказов, несколько из которых переведены на узбекский язык. С помощью этого перевода рассказа анализируется, в какой степени стиль писателя и смысловые особенности текста были переданы в переводе.

**Kalit soʻzlar:** yomg’ir, mushuk, tarjima, ayol, uslub, hikoya

**Key words:** rain, a cat, translation, a woman, a style, a story

**Ключные слова:** дождь, кошка, перевод, женщина, стиль, рассказ

### Kirish

Ma’lumki, kontekst tarjimoning asosiy mayog’i, tarjimadagi yaqin do’shti hisoblanadi. Tarjimon yozuvchining ijodiy niyatini albatta, soʻz, jumla, bir soʻz bilan aytganda, kontekst orqali anglaydi va unga rioya qilgan holda tarjima materialini tayyorlaydi. Ba’zan, matndan tashqari chiqib ketsa, bu holat albatta, asar ma’nosiga ham putur yetkazadi, tarjima sifatini esa umuman tushirib yuboradi. Demak, tarjimon matnga juda sadoqat bilan yondashishi, muallif ijodiy niyatiga nisbatan zarracha xiyonat qilmasligi tarjima jarayonining qat’iy qoidalardir biridir.

### **Asosiy qism**

Atoqli yozuvchi E.Xeminguey qalamiga mansub yuzdan ortiq hikoyalar mavjud bo'lib, adib hayotlik chog'ining o'zida besh nafar hikoyalar to'plami chop etilgan bo'lsa, yozuvchi vafotidan keyin yana ko'plab hikoyalar to'plami takror-takror chop etib kelinmoqda.

Ammo afsuski, o'zbek tiliga E.Xemingueyning barmoq bilan sanarli hikoyalari tarjima qilingan bo'lib, ularning soni o'ndan oshadi, xolos. Jumladan, "Frensis Makomberning omonat baxti", "Yengilmas", "Qotillar", "Yomg'irda qolgan mushuk", "Dahshatli kutish", "Doktor va uning ayoli", "Hindular chodiri", "Maestro bilan suhbat" va boshqa suhbat yoki xatlaridir. Bu albatta, yozuvchining ummondek ijodi oldida ancha kam raqamlardir. Lekin shunga qaramay, o'zbek kitobxonlari allaqachon E.Xemingueyning nomi, uning lo'nda va ravon uslubi, dovyurak qahramonlari bilan allaqachon qadrdon bo'lib ketgan.

E.Xemingueyning mashhur hikoyalari juda ko'p, shulardan biri "Yomg'irda qolgan mushuk" asaridir. Mazkur hikoya o'zbek tilimizga mohir tarjimon Olim Otaxon tomonidan professional tarzda tarjima qilingan va nufuzli jurnalimiz "Jahon adabiyoti" ning 2014 yil 12-sonida chop etilgan.

"Yomg'irda qolgan mushuk" ("Cat in the Rain") hikoyasi 1925 yili yozuvchining "Bizning zamonlarda" ("In Our Times") to'plamida nashr etilgan. Hikoyaning yozilish tarixiga nazar tashlasak, asar yozuvchining "Xemingueyning mushuklari" ("Hemingway's Cats") kitobiga muvofiq yaratilgan. Adib rafiqasi Xedli bilan Parijda bir muddat yashagan chog'larida ko'p vaqtini ishda o'tkazar, Xedli xonim esa uyda ko'pincha yolg'iz qolardi. Shunday vaqtlarda rafiqasi Xemingueydan mushuk olib kelib berishini so'ragan, yozuvchi esa unga ayni paytda ularning mushuk boqishga qurlari yetmasligini tushuntirgandi. Rafiqasi homilador bo'lganida Xeminguey u bilan 1923 yilda Ezra Paundnikiga mehmonga boradi va u yerda to'satdan yomg'ir yog'a boshlaydi. O'sha vaqt Xedli xonim kichkina mushuk bolasini topib olib, uni uyga olib ketishni so'raydi va tinmasdan: "Men o'sha mushukni istayman...Menga mushuk kerak. Hozir istayman. Modomiki, kalta sochim yo biron ermagim bo'lmas ekan, hech yo'q, bittagina mushukcham bo'lishini istayman" - deydi [1].

Umuman olganda, Xeminguey ijodida ayollar obrazi muhim ahamiyat kasb etadi. "Alvido, qurol!" romanidagi Ketrin, "Bong kimga chalinayotir?" romanidagi Mariya, "Quyosh baribir chiqaveradi" romanidagi Ledi Brett Eshli, "Borlik va yo'qlik" romanidagi Mariya obrazlari Xeminguey asarlarining yetakchi personajlaridir. Ular bosh qahramonlarning asosiy maqsadlariga erishishda katta jonbozlik ko'rsatgan, mashhur romanlariga alohida mazmun-mohiyat, jilo bag'ishlay olgan jonli xarakterlar hisoblanadi.

"Xemingueyning ayollar obraziga murojaat etish sababi va ularni o'z asarlarida aks ettirganligi uning o'z istagiga binoan emas, yoki Amerika tabiatiga xos bo'lgani uchun ham emas, balki boshqa mamlakatlar adabiyotida ayol qahramonlarsiz asar yaratish nomukammal bo'lgani sababdandir. Asarlaridagi ayollarning roli esa bosh erkak qahramonlarga ruhiy va jismoniy madad berish, ba'zan esa aksincha, erkakni yerga urib, uni yolg'iz va dahshatli hayotni bir o'zi kechirishga hukm qilish, er-xotinlik rishtalarini tamomila uzib tashlab, bir o'zini so'qqabosh ahvolda qoldirish edi. Yana bir tomondan Xemingueyning ayrim hikoyalarida buning aksi ham ifodalanadi, mehr-muhabbatga tashna ayolning o'tinchli yolvorishlari erkak tomonidan e'tiborsiz va shafqatsiz holda qoldiriladi. Bu kabi syujet tizimi

**ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСИЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

yo'zuvchining "Yomg'irda qolgan mushuk" hamda "Begona fasl" nomli hikoyalarida mohirona tarzda yoritib berilgan" [2].

"Yomg'irda qolgan mushuk" hikoyasining bosh qahramoni amerikalik ayol ismsiz tarzda tasvirlanadi. Hikoya avvalida biz uni turmush o'rtog'i Jorj bilan Italiyadagi mehmonxonaga dam olgani kelganini ko'ramiz. Mehmonxona dengizga qarata qurilgan, orqasida bog'i, ro'parasida esa urush sharafiga katta haykal o'rnatilgan maydoni bor. Butun hikoya davomida muttasil yomg'ir yog'ib turadi, shunday ekan, yosh juftlik tashqariga chiqolmay, xonalariga qamalib olishga majbur bo'ladilar. Amerikalik ayol yog'ayotgan yomg'irni tomosha qilib turarkan, to'satdan bog'dagi stol ostida yomg'irdan o'zini panalagancha qunishib o'tirgan mushukchaga ko'zi tushadi. Birdan ayolning himoyasiz mushukchaga rahmi keladi va uni xonasiga olib chiqishni qattiq istab qoladi. Biroq u tashqariga chiqqanida mushuk qayoqqadir g'oyib bo'ladi, umidi so'ngan ayol mehmonxonaga quruq qo'l bilan qaytib keladi. Shu yerda biz uning eri bilan kechgan suhbatidan erkakning ayolga nisbatan juda beparvo, anchayin xudbin va boqibeg'am bir kimsa ekanligini ko'ramiz. U xotini mushukni olgani tashqariga chiqib ketayotganida ham yotgan joyidan boshini ko'tarmaydi, quruqqina qilib "Yomg'irda ivib ketma", deb qo'yadi, xolos. Ayolning bu munosabatdan ancha yillardan beri ko'ngli o'ksigan, u o'zini butun umr yolg'iz, e'tiborsiz, mehsiz holda his qilib yashagan. U o'sha mushukchani ham qalbini ayovsiz ezayotgan yolg'izlikdan, hasratlaridan qutqarish uchungina istagan, u bilan dardu g'amlarini biroz bo'lsa-da unutishni, taskin topishni xohlagan edi. Chunki ayol yaxshi bilardiki, bundan buyon ham unga erining mehr, e'tibor berishi ancha dargumon edi.

Inglizchasi:	Tarjimasi:
<p>"George was on the bed, reading.                      "Did you get the cat?" he asked, putting the book down.                      "It was gone."                      "Wonder where it went to," he said, resting his eyes from reading.                      She sat down on the bed.                      "I wanted it so much," she said. "I don't know why I wanted it so much. I wanted that poor kitty. It isn't any fun to be a poor kitty out in the rain.                      George was reading again".</p>	<p>Jorj hamon karavotda kitob o'qib yotardi.                      - Xo'sh, mushukni olib keldingmi? – deb so'radi u kitobdan bosh ko'tarib.                      - U ketib qopti.                      - Qayoqqa ketadi? – dedi Jorj.                      Ayol karavot chetiga omonatgina o'tirdi.                      - Uni biram erkalagim keluvdi! – dedi u. – Negaligini o'zim ham bilmayman, lekin bechora mushukni bag'rimga bosib erkalagim keluvdi. Bunaqa yomg'irda boyoqish qiynaladi.                      Jorj yana o'qishga tutindi                      "Jorj hamon karavotda kitob o'qib yotardi.                      - Xo'sh, mushukni olib keldingmi? – deb so'radi u kitobdan bosh ko'tarib.                      - U ketib qopti.                      - Qayoqqa ketadi? – dedi Jorj.                      Ayol karavot chetiga omonatgina o'tirdi.                      - Uni biram erkalagim keluvdi! – dedi u. – Negaligini o'zim ham bilmayman, lekin bechora mushukni bag'rimga bosib erkalagim keluvdi. Bunaqa yomg'irda boyoqish qiynaladi.                      Jorj yana o'qishga tutindi.</p>

**ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСИЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

“Xemingueyning ayol qahramonlarining mohiyatini tushunish kitobxondan alohida e’tibor talab qiladi. U zamonaviy hayotning qarama-qarshiliklaridan biri, pulning hukmronligi va ayniqsa ayollar hayotini izdan chiqarayotgan lavhalarini “Yomg’irdagi qolgan mushuk” hikoyasida tasvirlaydi. Hikoya davomida norozilik tuyg’usi tarqalib ketganga o’xshaydi, nimadir yetishmayotgandek bo’lib ko’rinadi. Asar qahramoni hayotda chinakam ayol bo’lishni hohlayotganini aytadi: “Men to’ydim”, - deydi u. “Sochlarimni mahkam tortib, silliq qilishni va boshimning orqa tomonida katta tugun bo’lishini va ularga tegishni istayman”, deydi u. U rostdanam ayol bo’lishni istar edi. Bunday bayonot paradoksal bo’lib tuyulishi mumkin. Axir u darhaqiqat bir ayol. “Yomg’irda qolgan mushuk” hikoyasini tahlil qilishni davom ettirar ekanmiz, shuni ta’kidlash kerakki, qahramonimiz qandaydir chuqur ma’noda ayol emasligidan qoniqmaydi, u erkin, sevimli, qadri ayol bo’lishni orzu qiladi. Ammo erkakning ko’ziga hammasi joyidadek bo’lib ko’rinadi. Hikoya mobaynida faqat kitob o’qib yotadi. U ayoli inson sifatida o’zini qidirayotganini ko’rmaydi va his qilmaydi” [3].

Ayol doimo sochlari kalta bo’lishini, katta dasturxon atrofida bolalari bilan ovqatlanishni qattiq orzu qilgan. Biroq hamisha uning orzulari sarobga aylanib, eri tomonidan ahamiyatsiz qoldirilgan:

Inglizchasi:	Tarjimada:
<p><i>"Don't you think it would be a good idea if I let my hair grow out?" she asked, looking at her profile again.</i></p> <p><i>George looked up and saw the back of her neck, clipped close like a boy's.</i></p> <p><i>"I like it the way it is."</i></p> <p><i>"I get so tired of it," she said. "I get so tired of looking like a boy."</i></p> <p><i>George shifted his position in the bed. He hadn't looked away from her since she started to speak.</i></p> <p><i>"You look pretty darn nice," he said.</i></p> <p><i>She laid the mirror down on the dresser and went over to the window and looked out. It was getting dark.</i></p> <p><i>"I want to pull my hair back tight and smooth and make a big knot at the back that I can feel," she said. "I want to have a kitty to sit on my lap and purr when I stroke her."</i></p> <p><i>"Yeah?" George said from the bed.</i></p> <p><i>"And I want to eat at a table with my own silver and I want candles. And I want it to be spring and I want to brush my hair out in front of a mirror and I want a kitty and I want some new clothes."</i></p> <p><i>"Oh, shut up and get something to read," George said. He was reading again.</i></p>	<p><i>Sochimni o'stirsam nima deysan? – deb so'radi u yana yon tomondan o'zini kuzatar ekan.</i></p> <p><i>Jorj boshini ko'tarib, uning qizaloqlarnikidek kalta sochlari yashirolmagan bo'yniga tikildi.</i></p> <p><i>- Menga shu turishi yoqadi.</i></p> <p><i>- Mening esa jonimga tegib ketdi, - dedi ayol. – O'g'il bolaga o'xshab yurish shunaqayam jonimga tekkanki...</i></p> <p><i>Jorj narigi yonboshiga o'girildi. Xotini gapira boshlagandan beri unga qarab yotar edi...</i></p> <p><i>- Keyin o'zimning uyimda, stolimda ovqat yeyishni istayman, qoshiq-sanchqilar o'zimmiki bo'lsa, shamdonlarda sham yonib tursa. Bahor kelishini istayman, toshoyna oldida sochimni tarab o'tirsam deyman, o'zimning mushugim bo'lishini istayman, yangi ko'ylak olib kiygim kelyapti...</i></p> <p><i>- Bo'ldi-ye! Kitob o'qi undan ko'ra! – dedi Jorj. U yana o'qishga tutindi.</i></p>

Ayolning yanayam o’ksigan holati shundaki, u hatto mehmonxona xo’jayinining unga ko’rsatgan iltifotidan, ayolni har ko’rganida egilib salom

**ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСИЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

berishidan ham xushbaxt bo'ladi, go'yo erkakning unga ko'rsatayotgan chuqur ehtiromi deb biladi, biroq bu e'tiborni u o'z eridan ko'rmaydi.

Hikoya so'nggida mehmonxona xodimasi yomg'irda ivigan mushukchani erotinning xonasiga olib kirib: "Buni sizga xo'jayin berib yubordilar" deganida ayolda janobga bo'lgan hurmat yanayam chuqurlashadi.

"Yomg'irda qolgan mushuk" hikoyasini o'zbek tiliga tarjima qilgan mohir mutarjim Olim Otaxon Xemingueyning hikoyachilikdagi badiiy mahorati, xususan, mehmonxona janobining ayol qalbida mehr uyg'ota olganligini shunday ifodalaydi:

"Ziyarak, mulohazakor kitobxonda savol tug'iladiki, qanday qilib va nima sababdan shunday muhtasham mehmonxonaning yoshi ulug', martabali xo'jayini (hikoyada uni padrone deb atashadi) g'irt notanish ayolning beorom qalbiga yo'l topa oladi – avval u yomg'irda shalabbo bo'lmasligi uchun xizmatkordan soyabon berib yuboradi, keyin amerikalik ayol topolmagan mushukni topib unga yetkazadi. Ehtimol, oq-qorani tanigan, turmush qiyinchiliklari-yu, odamlarni yaxshi bilgani uchun shunday qilishni lozim topgandir; ehtimol, mehmonxonaga kelib ketayotgan son-sanoqsiz mijozlar orasida o'zini doim yolg'iz sezgani uchun amerikalik ayolga hamdard bo'lgisi kelgandir"[5].

"Yomg'irda qolgan mushuk" hikoyasining yana bir muvaffaqiyati shundaki, o'quvchi unda ortiqcha ramzlarga, o'xshatish, metafora yoki troplarga duch kelmaydi. Biroq Xeminguey uslubi shundayki, u hamisha o'z kitobxoniga soddalik va lo'ndalik orqali o'zining murakkab va mukammal g'oyalarini singdirishga erishib kelgan.

"Unda (hikoyada) badiiy adabiyotda biz ko'nikkan sifatlar, tashbehlar, bo'rttirishlar, obrazli ifodalar uchramaydi – quruqqina yozilganday taassurot uyg'otadi. Lekin zohiran his-hayajonsiz, ehtirossiz, quruq tuyilgan bilan botinan to'laqonli, jo'shqin, ehtirosiga limmo-lim asar. Ta'bir joiz bo'lsa, aysberg – muz qoyaning asosiy qismi suv ostida, ya'ni bu o'rinda matn zamirida, bir uchigina suv yuzasida ko'rinish beradi. Shu jihati bilan hikoya yozuvchi yaratgan "aysberg nazariyasi"ning barcha talablariga javob beradi"[5].

Hikoyaning eng kulminatsion nuqtasi sifatida amerikalik olim Jozef Maykl quyidagi parchani keltiradi:

"Hikoyaning juda ko'p joylarida yengil kinoya ohangi ufurib turadi. Eng e'tiborlisi, hikoya boshida yog'a boshlagan yomg'ir voqealar avj olgani sari u ham kuchayib boraveradi. Yoki bog'da yomg'irdan berkinib o'tirgan mushukni olgani chiqqanda amerikalik ayolga mehmonxona oqsochining bergan quyidagi savolini olaylik. U ayolga:

– Ha perduto qualche cosa, Signora? (italyan. Biror narsangizni yo'qotdingizmi, xonim.)

Shunchaki berilgan bu savolda ayolning eng nozik dardlari aks etib turgandek bo'ladi. U ayol zoti uchun eng kerakli, eng zarur bo'lgan mehrni, muhabbat, e'tibor, hurmatni yo'qotgan, unga ichikkan edi"[4].

Xeminguey hikoyalari o'zining ixchamligi, lo'nda va ma'noli dialoglarga boyligi, muallifning ortiqcha izohsiz yozilganligi bilan boshqa yozuvchilar ijodidan ajralib turadi. "Yomg'irda qolgan mushuk" hikoyasida ham biz yozuvchining hikoya yaratish mahoratiga qoyil qolsak, bir tomondan asardagi ayol obrazining ismsiz tarzda tasvirlanishiga qaramasdan, unga nisbatan o'quvchi qalbida xayrixohlik, rahm-shafqat uyg'ota olganligiga to'la iqrор bo'lamiz. Go'yo Xemingueyning birgina ayol obrazi orqali butun Amerika, butun dunyo ayollari hamisha mehr, ehtimol,



**ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСИЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

hurmat va e'tiborga mutlaq loyiq ekanligini his qilamiz. Shu o'rinda hikoya tarjimasidagi mazkur jihatlarni tahlil etishga o'tamiz.

“Yomg'irda qolgan mushuk” hikoyasi tarjimasida tabiat tasvirining berilishi:

Inglizchasi:	Tarjimasi:
<i>There were big palms and green benches in the public garden.</i>	<i>Bog'da baland-baland palmalar o'sar, bu daraxtlarning tagida yashil o'rindiqlar bor edi.</i>

Mazkur tarjimada grammatik transformatsiya usuli qo'llanilgan bo'lib, aslyatdagi “and” bog'lovchisi tushirib qoldirilib, tarjimada uning o'rniga verguldan foydalanilgan. Shuningdek, gapning ikkinchi bo'lagida “bu daraxtlarning” so'zi qo'shilib, aslyatda bu so'zning qayta ishlatilganini kuzatmaymiz. Demak, tarjimon jumla mazmunidan kelib chiqqan holda “yashil o'rindiqlar”ni o'sha palma daraxtlari ostida ekanligiga ishora bermoqda.

Yana:

Inglizchasi:	Tarjimasi:
<i>The rain dripped from the palm trees.</i>	<i>Sharros quyayotgan yomg'ir suvlari palma yaproqlaridan shir-shir oqib tushardi.</i>

Yuqoridagi tabiat tasvir tarjimasida kompensatsiya usuli ishlatilganini ko'ramiz, zotan aslyatdagi yetti dona so'z o'zbekchada o'nta so'z bilan berilmoqda, buning ustiga *dripped – tomchilar edi* fe'lining “*shir-shir oqib tushardi*” kabi tasvir ifodasi bilan berilishi tabiatdagi go'zal manzarani yana-da jonli va yorqin ko'rsatishga xizmat qilgan.

Inglizchasi:	Tarjimasi:
<i>Water stood in pools on the gravel paths. The sea broke in a long line in the rain and slipped back down the beach to come up and break again in a long line in the rain.</i>	<i>Shag'al to'shalgan yo'lkalarda xalqob-xalqob ko'lmaklar hosil bo'lgandi. Yomg'ir ostida to'lqinlar uzra tasma hosil qilib qirg'oqqa borib urilib, parcha-parcha bo'lib sochilib ketar, so'ng orqaga qaytib, yana yomg'ir ostida oldinga yugurar hamda qirg'oqqa to'sh urib osmonga sapchirdi.</i>

Bu tarjimada birdaniga bir nechta tasviriy-ifodaviy vositalar qo'llanilgan. *Yomg'irning qirg'oqqa borib, urilishi, sochilib ketishi, so'ng orqaga qaytib, yana yugurishi va qirg'oqqa to'sh urishida* yozuvchi ham, tarjimon ham jonlantirish vositasidan yuqori darajada foydalanganini ko'rsak, *Water stood in pools on the gravel paths* jumlasida (*Shag'al to'shalgan yo'lkalarda xalqob-xalqob ko'lmaklar hosil bo'lgandi.*) yana tarjimonning takror so'zlarga murojaat qilib, hikoya ta'sir kuchini oshirishga harakat qilganining guvohi bo'lamiz.

Hikoya tarjimasida takrorlarning ishlatilishi:

Inglizchasi:	Tarjimada:
<i>Big palms</i>	<b><i>Baland-baland</i></b> palmalar
<i>Come from a long way</i>	<b><i>Uzoq-uzoqlardan</i></b> kelishardi
<i>The rain dripped</i>	<i>Yomg'ir suvlari shir-shir oqib tushardi</i>
<i>Water stood in pools</i>	<b><i>Xalqob-xalqob</i></b> ko'lmaklar
<i>Sea broke in a long line</i>	<b><i>Parcha-parcha</i></b> bo'lib sochilib ketar

Ma'lumki, takror o'zbek tilida ma'noni kuchaytirish, so'z ta'sirini oshirish uchun xizmat qiladi. Garchi E.Xeminguey hikoyasida takrorlar uchramagan bo'lsa-da, tarjimon asar mazmunini mukammal berishni ko'zlagan holda, ayrim joylarda

**ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСИЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

takror soʻzlar bilan tarjimani berishga uringan. Bu holat albatta, hikoya maʼnosini buzmagani, aksincha, asardagi qahramonlar ruhiyatini toʻlaroq va ochiqroq ochib berishga xizmat qilgan.

Quyidagi jumlada grammatik transformatsiya usuli qoʻllangan:

Inglizchasi:	Tarjimasi:
<i>She went on up the stairs. She opened the door of the room.</i>	<i>U zinapoyadan <b>asta-asta</b> chiqib, xonalarining eshigini ohista ochib, ichkariga kirdi.</i>

Mazkur jumlada ikki gap boʻlagi tarjimada bitta qilib berilgan, yana “asta-asta” takror soʻzi kiritilib, jumla intonatsiyasini kuchaytirgan. Hikoyada mushukka erisha olmagan ayol umidi uzilib, nochor holda xonasiga qaytadi. Bu yerda yozuvchi ayolni zinalardan ohista koʻtarilganini yozmaydi, biroq ziyrak tarjimon ayol kayfiyatidan kelib chiqqan holda, uning tushkunligini ifodalash uchun “asta-asta” soʻzini qoʻllaydi, bu esa kitobxonga ayolning ruhiy holatini anglab olishda yana-da yordam beradi.

Shuningdek, tarjimon ajoyib taqlid soʻzlardan ham mohirlik bilan foydalangan. Chunonchi, ushbu misolda:

Inglizchasi:	Tarjimasi:
<i>I want to have a kitty to sit on my lap and <b>purr</b> when I stroke her...</i>	<i>Mushugim boʻlishini xohlayman, silayotganimda tizzamda <b>xur-xur</b> qilib yotsa...</i>

Hikoya tarjimasida yana bir qator leksik transformatsiyalarni uchratishimiz mumkin. Bunday misollarda O.Otaxon kalkalash usulidan sanʼatkorlik bilan foydalanganini koʻrishimiz mumkin:

Inglizchasi:	Tarjimasi:
<i>The cat was trying to make herself so <b>compact</b> that she would not be dripped on.</i>	<i>Jonivor badaniga suv tushmaslik uchun <b>gʻujanak</b> boʻlib olgandi.</i>
<i>His desk was <b>at the far end</b> of the office.</i>	<i>U oʻtirgan xona vestibulning narigi <b>kunjak</b>ida joylashgan edi.</i>
<i>He was an <b>old man</b> and very tall.</i>	<i>Mehmonxona xoʻjayini baland boʻyli <b>moʻysafid</b> edi.</i>
<i>She liked his <b>dignity</b>.</i>	<i>Uning <b>nuroni</b>y chehrasi yoqar edi.</i>

Misollarda koʻrib turganimizdek, *compact* – *gʻujanak*, *at the far end* – *kunjak*, *old man* – *moʻysafid*, *dignity* – *nuroni*y kabi ajoyib ekvivalentlarga oʻzgartirilgan. Bu holatdan albatta, oʻzbek tilimizning qanchalar boy va goʻzal soʻzlarga ega ekanligidan faxrlanib ham ketamiz, bu yerda shubhasiz, tarjimon soʻz boyligining kengligiga tan bermay iloj yoʻq, albatta.

Shuningdek, tarjimon iboralar bilan ham asliyatdagi ayrim soʻzlar tarjimasini ifodalashga harakat qilgan. Jumladan:

Inglizchasi:	Tarjimasi:
<i>She was suddenly disappointed.</i>	<i>Amerikalik ayolning hafsalasi pir boʻldi.</i>
<i>She liked the way he felt about being a hotel-keeper.</i>	<i>Mehmonxona xoʻjayini degan nomiga sirayam dogʻ tushirmaslikka intilishi yoqardi.</i>
<i>She liked the way he wanted to serve her.</i>	<i>Koʻnglini topishga harakat qilishlari yoqardi.</i>
<i>Liking him, she opened the door and looked out.</i>	<i>Shularni koʻnglidan kechirgan cha ayol koʻcha eshik yoniga bordi.</i>
<i>It was getting dark.</i>	<i>Qosh qoraygan edi.</i>

Misollardan ko'rinib turibdiki, aslyatda ibora bilan berilmagan jumlar tarjimada ibora va metaforik birikmalar bilan berilganiga guvoh bo'lamiz. Chunonchi: *disappointed - hafsalasi pir bo'ldi, felt about - dog' tushirmaslikka intilishi, to serve her - ko'nglini topishga harakat qilishlari, liking him - ko'nglidan kechirgancha, it was getting dark - qosh qoraygan edi* kabi tarjimadagi topilmalar bilan ifodalangan. Tarjimonning bu kabi holatlardan ham maqsadi shubhasiz, kitobxon shuuriga asar mohiyatini xorijiy va milliy mentalitetimizga mos ravishda yetkazishga, aslyatdagi ayrim so'zlarni to'g'ridan-to'g'ri tarjimasi hikoyaning ekspressiv ta'sirini kitobxoniga yetkazishga kamlik qilishini anglagan holda amalga oshirishga qaratilgandir. Hikoya syujetida qolaversa, yozuvchi ko'plab asarlarida qo'llagani kabi italyancha so'zlardan foydalangan. Bu holat ham adibning san'atkorona uslubidan dalolat berib, u hikoya voqealarining xorijda kechayotganini o'quvchiga bot-bot eslatib turmoqchi ekanligini, bundan tashqari, ajnabiy kishilarining uning ayollik qalbini uning beg'am va bee'tibor eridan ko'ra nechog'lik nozik his qilayotganlarini ochib bermoqchi ekanligini bildiradi.

Xulosa va takliflar. Biz yuqorida kuzatgan bir-ikki misollarimiz bilan albatta butun tarjimoni mukammal tarzda tahlil qila olmaymiz. Ammo shuni aytib o'tish joizki, tarjimon mahorati va iqtidorini har tomondan kuztasak va tahsin aytsak bo'ladi. "Yomg'irda qolgan mushuk" hikoyasi O.Otaxon tarjimasida har tarafdin pishiq, Xeminguey uslubiga xos ravon, silliq chiqqan bo'lib, o'zbek o'quvchisi didi va saviyasiga to'la javob bera oladi, deb o'ylaymiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Brennen, C. Hemingway's Cats. - Sarasota, 2006. FL:Pineapple Press.p.16.
2. Dr.C.Ramya. Language in India. [www.languageinindia.com](http://www.languageinindia.com) ISSN 1930-2940.Vol.19:5 May 2019
3. Колобанова Л.Н. Женские образы в произведениях Э.Хемингуэйя.// Филологические науки в России и за рубежом. Международная заочная научная конференция.- Санкт -Петербург, 2012. Стр.64
4. Joseph Vichael DeFalco.The theme of individuation in the short stories of Ernest Hemingway.// University of Florida.- USA, 1961. p.168.
5. Отаход, О. Сархадлар. // Жахон адабиёти.- Тошкент, 2014. - №12. -Б 127.